SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# Samarqand viloyati kichik tadbirkorlik

## 2022- yil yanvar-mart

Dastlabki ma’lumotlar

# Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da**




**2020- yil**




**2021- yil**




**2022- yil**

2022- yilning yanvar-mart kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi **63,8** % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart **3,3** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **36,0** foizga ko‘p demakdir.

**2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **1 572** ta, sanoatda **516** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **372** ta, qurilishda **113** ta, yashash va ovqatlanishda **288** ta, axborot va aloqada **68** ta, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 58 ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

UZSTAT — Samarqand viloyati statistika boshqarmasi

## 2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi — 94,8
- Sanoat — 37,7
- Qurilish — 82,3
- Investitsiya — 56,6
- Savdo — 75,4
- Xizmatlar — 64,1
- Eksport — 49,9
- Import — 39,3

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 42 762 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 3 273 |

2022- yilning 1-aprel holatida faoliyat yuritayotgan va yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, ulushi % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## 2022- yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar, % da

| | |
|---|---|
| Savdo | 38,1% |
| Sanoat | 19,1% |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 9,2% |
| Qurilish | 7,9% |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 9,4% |
| Tashish va saqlash | 2,7% |
| Axborot va aloqa | 1,8% |
| Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 1,9% |
| Boshqa faoliyat turlari | 9,7% |




1- aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## 1-aprel holatida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

| | 2021- y. | 2022- y. | |
|---|---|---|---|
| Toyloq | 1 438 | 1 817 | +379 |
| Urgut | 3 095 | 3 689 | +594 |
| Nurobod | 1010 | 1310 | +300 |
| Samarqand | 2634 | 3180 | +546 |
| Paxtachi | 857 | 1096 | +239 |
| Pastdarg‘om | 2953 | 3582 | +629 |
| Payariq | 1805 | 2191 | +386 |
| Narpay | 1078 | 1323 | +245 |
| Qo‘shrabot | 715 | 916 | +201 |
| Kattaqo‘g‘on | 1698 | 2188 | +490 |
| Ishtixon | 1850 | 2315 | +465 |
| Jomboy | 1352 | 1766 | +414 |
| Bulung‘ur | 1279 | 1735 | +456 |
| Oqdaryo | 1370 | 1817 | +447 |
| Kattaqo‘g‘on sh. | 1189 | 1391 | +202 |
| Samarqand sh. | 10657 | 12446 | +1789 |

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## 2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Samarqand shahri – 25,0 %, Pastdarg‘om tumani – 10,0 %, Urgut tumani – 8,1 %, Samarqand tumani – 7,3 %, Ishtixon tumani – 5,3%, Oqdaryo tumani - 5,5 %, Kattaqo‘rg‘on tumani - 5,2 % hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




**Ma’lumot uchun: 2022– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:**

**Savdoda**
**1 572 ta**

**Sanoatda**
**516 ta**

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida**
**372ta**

**Yashash va ovqatlanish bo‘yich xizmatlar**
**288 ta**

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 71,2 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 49,9 % ini tashkil etdi.






yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

**2022 yilnig yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Kattaqo'rg'on shahar, Bulung'ur, Oqdaryo, Qo'shrabot va Kattaqo'g'on tumanlarida – 100,0 %, Urgut tumanida – 83,3 %, Payariq tumanida 78,3 %, Toyloq tumanida-54,9 %, Jomboy tumanida – 46,8 % va Pastdarg'om tumanida – 37,1 %ni, eng past ko'rsatkich Nurobod tumanida –5,2 % ni

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **160,3** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **39,3** % ini tashkil etdi.




**yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi**



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Qo‘shrabot, Bulung‘ur va Payariq tumanlarida-100,0 %, Paxtachi - 99,5 %, Kattaqo‘rg‘on shahrida – 97,6 %, Ishtixon tumanida – 96,5 %, Kattaqo‘rg‘on tumanida – 85,4 %, Urgut tumanida – 84,0 %, Oqdaryo tumanida – 80,7 %. Eng past ko‘rsatkich Samarqand shaharida - 21,6 % ni tashkil etdi.

**2022 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati

**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** *mlrd. so‘m*

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 128,8** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (630,2 mlrd. so‘m), Urgut (345,8 mlrd. so‘m), Samarqand (233,8 mlrd. so‘m), Jomboy (246,2 mlrd. so‘m) va Kattaqo‘rg‘on (114,2 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Qo‘shrabot tumanida (15,4 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **37,7** % ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bulung'ur, Qo'shrabot, (100,0%), Kattaqo'rg'on shahri (92,3%), Oqdaryo tumani (80,8%), Kattaqo'rg'on tumani (76,9 %) Urgut tumani (72,3%), Samarqand shahri va Samarqand tumani (54,8%), Pastdarg'om tumani (53,4%), Payariq tumani (44,8%), Jomboy tumani (34,8%), Toyloq yumani (26,1%) ni tashkil etdi. Narpay tumani (14,5%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




**yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi**

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3 642,5** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **75,4** % ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **3,5** % ga o‘sishi kuzatildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (942,6 mlrd. so‘m), Kattaqo‘g‘on shahri (331,3 mlrd. so‘m), Urgut (451,2 mlrd. so‘m), Pastdarg‘om tumani (229,5 mlrd. so‘m), Bulung‘ur (198,4 mlrd. so‘m), Kattaqo‘g‘on (213,3 mlrd.so‘m) va Payariq (192,2 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar- martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 275,7** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **82,3** % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **115,0** % ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (541,3 mlrd. so‘m), Oqdaryo (101,3 mlrd. so‘m),Payariq (96,9 mlrd. so‘m), Urgut (64,2 mlrd. so‘m), Pastdarg‘om (63,8 mlrd. so‘m), Samarqand (59,5 mlrd. so‘m) hamda Ishtixon (55,5 mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati






yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3079,0** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **64,1** % ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **117,8** % ni tashkil qilgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (914,0 mlrd. so‘m), Samarqand (266,3 mlrd. so‘m), Pastdarg‘om (224,1 mlrd.so‘m), Urgut (230,3 mlrd. so‘m), Toyloq (171,2 mlrd. so‘m), Jomboy (165,4 mlrd. so‘m), Kattaqo‘rg‘on (156,9 mlrd. so‘m) va Ishtixon (141,1 mlrd. so’m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

## 2022- yilning yanvar- martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati



# 2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlari

**2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




Yuk tashishda




Yuk aylanmasida




Yo‘lovchi tashishda




Yo‘lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 89,1 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,5 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 86,8 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,8 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,2 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,1 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,8 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 103,0 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **2 039** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 802 (39,3 %)tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 1106 (54,2%) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 131 (6,4%)ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

**2022- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofir-malarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 4,7 % (96 ta), sanoatda – 18,5 % (378 ta), qurilishda – 6,6 % (134 ta) , savdoda – 42,9% (874 ta), xizmatlar sohasida – 27,3 % (557 ta)ni tashkil etdi.



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yil I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (570 ta), Samarqand (184 ta), Urgut (150 ta), Pastdarg‘om (140 ta), Kattaqo‘rg‘on (123 ta), Ishtixon (100 ta), Toyloq (99 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yil I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




**2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning I choragida, o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda 41,9%ni, sanoatda 39,9%ni xizmatlar sohasida 38,4%ni, qurilishda 31,3 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qurilish 61,2 %ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 59,4 %ni, sanoatda 54,8%ni, savdoda 52,1 % ni, va xizmatlar sohasida 54,8% ni tashkil etdi.

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdo sohasida 50,7%ni, qurilishda 49,3 %, sanoat sohasida 46,8%ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi sanoatda 50,0 % ni, xizmatlar sohasida 49,2 % ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 49,0 % ni, qurilishda 46,3% ni, savdo sohasida 44,6% ni tashkil etdi.